

ANBAR OTIN LIRIKASIDA BADIY SAN’ATLAR

Nigora Pardayeva,

Nizomiy nomidagi TDPU f.f.f.d (PhD)

Annotatsiya: Maqolada lirikaning asosiy unsurlaridan bo‘lgan badiiy san’atlar va ularning turlari haqida ma’lumot berilgan. Shuningdek, bu badiiy san’atlarning shoira Anbar Otin lirik merosida qo‘llanilishi xususida mulohaza bildirilgan. Shoiraning g‘azal, muxammas, yakka baytlarida qo‘llanilgan badiiy san’atlar tahlil etilgan.

Kalit so‘zlar: Anbar Otin, tajnisi tom, talmeh, intiboh, tazod, tashbeh.

Аннотация: В статье представлена информация об основных элементах лирического искусства и их видах. Также комментируется использование этих художественных искусств в лирическом наследии поэтессы Анбар Отин. Анализируются художественные приемы, использованные поэтом в газелях, былинах, отдельных стихах.

Ключевые слова: Анбар Отин, таджниси том, талмех, интибах, тазад, таибех.

Ma’lumki, lirikada badiiy san’atlarning qo‘llanilishi, ijodkor fikrining ta’sirchanligi, obrazlilik, kitobxonga muallif badiiy niyatini yanada chuqur anglashga xizmat qiladi. Badiiy san’atlar so‘zlarning ma’no-mazmuniga, shakliy xususiyatlariga hamda bu unsurlarning baravar qo‘llanilishiga ko‘ra quyidagicha tasnif etiladi:

1. Ma’naviy san’atlar.
2. Lafziy san’atlar.
3. Qorishiq san’atlar.

Anbar Otin asarlarida biz badiiy san’atlarning har uchala guruhiga mansub san’atlarni uchratamiz. Quyida shoira asarlarida qo‘llangan ayrim badiiy san’at turlarini tahlil maydoniga olib kiramiz.

Shoira Ona Vatani Turkistonning mustamlaka iskanjasiga tushishi, millatning taraqqiyotdan ortda qolib, tanazzulga yuz tutishi, bosqinchilar zulmi ostida ezilishi ijodkor qalbini iztirobga to‘ldirgan. Shoira asarlarida elning har bir farzandini Vatan va millatni jondan aziz ko‘rishga, ardoqlashga, mutaraqqiy davlatlar va xalqlar darajasiga yuksalishi uchun xizmatda bo‘lishga chorlaydi. Jumladan, shoira muxammaslaridan birida mana bunday yozadi:

Degilki, bolam, bu so‘zlarim o‘ylagil taningga,
Xizmat qila ko‘r el uchun bu dono Vataningga,
El rohati-yu g‘amini qabul et taningga,
Bovar qila ko‘r kelgusida yashnoq mard-u zaningga,
Farzand-u qarindosh qabul etsun ishoratingni [1, 1970, 39].

Anbar Otin farzandi va xalq o‘g‘lonlarini tug‘ilib o‘sgan yurtiga xizmat qilishga da’vat etar ekan, ona yurtiga nisbatan “dono Vatan” sifatlashini qo‘llaydi. Uningcha,

“O‘ZBEK ADABIYOTSHUNOSLIGINING DOLZARB MASALALARI” MAVZUSIDAGI XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA MATERIALLARI

Vatan hamma narsani bilguvchi, ko‘rguvchi va saboq berguvchi donishmand. Farzandlar el rohat-farog‘ati-yu g‘am-alamini birdek qabul qilish kerakligi, Vatandan hech qachon yuz o‘girmaslik, uni oyoqosti qilmaslik haqidagi o‘git shoiraning bevosita ijodiy niyati – voqelikka munosabati natijasidir. Misralarda qo‘llanilgan tashbeh (dono Vatan), tazod (rohat-g‘am), tanosub (Vatan-el; farzand-qarindosh) san’atlari fikr ta’sirchanligini oshirishga xizmat qilgan.

Alisher Navoiy asarlarini sevib, chuqur mulohaza qilgan ham shoir an‘analari davom ettirgan shoir so‘zni shunday ta’riflaydi.

So‘zlamasdin oldin so‘zingni sina,
Har bir so‘z dur umring ichinda sina.

Odamzodning tashqi qiyofasidan aqliy, ma’rifiy darajasini ajratib bo‘lmaydi. Ayni xususiyatni so‘z orqaligina anglash mumkin. Chunki so‘z shunday qudratga egaki, u insonning hayotini obod qilishi yoki butunlay barbod etishi ham mumkin. So‘z – ijodkor badiiy niyatini ifodalashning tengsiz vositasi hamdir. Shoiraning so‘z borasidagi ixcham va teran mulohazasi tajnisi tomm (1. Sina – tekshirmoq, 2. Sina – boshidan kechirmoq) san’ati orqali yaqqol namoyon bo‘lgan.

Chor Rossiyasi va rus amaldorlarining mazlum insonlarga va zahmatkash xalqqa bo‘lgan noo‘rin muomalasi, o‘sha davrda milliy munosabatlarning adolatsizlik asosiga qurilgani haqida shoira shunday yozadi:

Hamnafas sanga erur noib, nasihat aylag‘il,
Sart millatlarni xo‘rlab, chashmi giryon etmagil.
O‘zbek ahlidin nechand olimlar chiqqandir bilsangiz,
Shak kelturib ilmimizg‘a, fe’li shayton etmagil.

“Bu misralarni, - deya ta’kidlaydi La’lixon Muhammadjonova, - o‘sha davr barcha rus ziyolilariga qarata aytilgan yuksak axloqiylikka, halollikka, insofga chorlov deb qabul qilish lozim. Ayni paytda bu she’r o‘zbek ziyolilarini ham ruslarga suyanishida ehtiyot bo‘lib harakat qilishga, milliy g‘ururni, mustaqil fikrlashni, erkinlikni qo‘ldan berib qo‘ymaslikka chaqiradi” [3, 2005, 121].

“Hamnafas sanga erur noib” deya noibning xotini bo‘lgan Yekaterinaga murojaat qilar ekan, shoira o‘zini o‘zbek xalqiga yaqin olayotgan rus kishilarini insofga chaqirishi kerakligiga, bu qaramlik, mustamlakalik vaqtinchalik hodisa ekaniga urg‘u beradi. Yuqoridagi misralarda shoira Sharqning azaldan madaniyat o‘chog‘i bo‘lib kelgani va insoniyat tamadduni ana shu manzildan boshlangani, dunyodagi ilm-ma’rifat asoschilari, ko‘plab ixtirolarning kashfiyotchilari bizning mutafakkir ajdodlarimiz ekanini aytib, rus davlatidan kam emasligimizga, millat sifatida ular bilan har jabhada bahslasha olishimizga ishora qiladi. “Shak keturib

“O‘ZBEK ADABIYOTSHUNOSLIGINING DOLZARB MASALALARI” MAVZUSIDAGI XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA MATERIALLARI

ilmimizg‘a, fe‘li shayton etmagil”, deyilishi sababi shunda. Shoira misralarda al-intiboh san‘atining go‘zal namunasini yaratadi.

Bu san‘at haqida Ahmad Taroziy tubandagicha fikr bildiradi: “Bu san‘at aningtek bo‘lurkim, mamduhni yoki mahbubni, yo nisihni, yo voizni, yo zohidni, yo o‘zga kishini nasihat tariqasi birla tanbeh qilurlar” [3, №6, 66]

Anbar Otin amaldorlarining adolatsizligi, johilligi haqida fikr yuritar ekan, ularning yonlarida turgan, ular bilan birgalikda xalqqa zulmu sitam ko‘rsatayotgan, zo‘ravonlik qilayotgan, chor Rossiyasining har bir buyrug‘ini so‘zsiz bajaradigan ilm-ma‘rifatdan, ma‘naviyatdan yiroq, ma‘nan qashshoq soxta din peshvolarining kirdikorlarini qalamga oladi. Ularga bo‘lgan nafratini mana bunday ifodalaydi:

Xudoning ne‘matini bo‘lub olg‘onlarga o‘t tushsin.

Shariat hukmini yo‘ldin chiqarg‘onlarga o‘t tushsin.

Tariqcha ilmi yo‘q “qozi kalonman, muftiman” deydur,

Abu Sino, Ulug‘bekdin ko‘z yumg‘onlarga o‘t tushsin [4, 1981, 104]

Shariat amallarini noto‘g‘ri talqin qilib, o‘z manfaatlariga xizmat qildirayotgan, din qonun-qoidalarini o‘z nafslariga moslab targ‘ib etayotgan, o‘zidan boshqani tan olmaydigan, dunyoviy bilimlarga yo‘l bermaydigan, diniy bilimlarni hali o‘zi mukammal tushunib yetmagan, xalqni qo‘rqitish yo‘li bilan ularga zug‘um qiladigan kimsalarga murosasiz munosabatini o‘tli satrlari orqali bildiradi. Buyuk ajdodlarimiz Abu Ali ibn Sino, Mirzo Ulug‘bekdek insonlarni unutgan bunday kimsalarga bo‘lgan kuchli e‘tirozini izhor etadi. O‘quvchi qalbiga chaqmoqday ta‘ir qiladigan “O‘t tushsin” radifi tanlangani, tanosub (shariat, qozikalom, mufti), talmeh (Abu Sino, Ulug‘bek) san‘atlari fikr ta‘sirchanligini ta‘minlagan. Xulosa qilib shuni alohida ta‘kidlash mumkinki, shoira lirikasida qo‘llanilgan har bir badiiy san‘at shoira ijodiy niyati va uning ta‘sirchan kuchini yanada oshirishga xizmat qilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Husainova F. Anbar Otin. She‘rlar. Risola. – T.: G‘.G‘ulom, 1970. – B 39.
2. Muhammadjonova L. Ma‘rifatparvar shoirlar – Dilshod Barno va Anbar Otinning axloqiy qarashlari. Fal. fan. nomz... diss. – Toshkent, 2005. – B 121.
3. Taroziy A. Funun ul-balog‘a // O‘zbek tili va adabiyoti, № 6. – B 66
4. Zebunniso, Dilshod va Anbar Otinlar sheriyatidan. – T.: O‘zbekiston, 1981. – B 104.
5. Omanova, M. (2024). IMPORTANCE OF VOICE IN EXPRESSIVE READING. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 12(1), 125-128.
6. Omanova, M. (2024). NIZOMIY GANJAVIY MEROSINING ALISHER NAVOIY IJODIGA TA‘SIRI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 4(20), 24-27.
7. Umida, R. (2024). THE RELEVANCE OF RHYTHM IN PROSE FICTION. *Journal of Modern Educational Achievements*, 1(1), 288-294.